



**ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNALOGIYALAR: FILOLOGIYA
VA PEDAGOGIKA SOXASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA
RIVOJLANISH OMILLARI.**

Ablazov Sirojiddin Qudratovich

Xalqaro NORDIK Universiteti magistranti

Email: ablazovsirojiddin@gmail.com

Annotasiya: *Rivojlanib borayotgan davrda yoshlarga ta'lim berish va bu orqali mamlakatni barqaror rivojlanishini ta'minlash inson kapitalini bozor ehtiyojlari darajasida tarbiyalash pedagogikaning muammolaridan biriga aylandi. Globallashuv davrida axborot olish va undan to'g'ri foydalanish bilan bir qatorda filologiya soxasida keng qo'llash yoshlar oldidagi maqsadga aylanishi ayni haqiqat.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar, globallashuv davri, filologiya soxasi, zamonaviy tendensiyalar.*

KIRISH

Ta'limda raqamli texnologiyalardan filologiya soxasida foydalanish talabaning dunyo qarashini, tasavvur olamini rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq qilish shu birga jaxon tajribasidan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tiborning o'sishi davlatimizda olib borilayotgan isloxlarning natijasidir.

Shu jumladan globallashuv davrida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tillarni o'rganish uni internet tarmoqlari orqali mustaqil ravishda egallashning samarali usullaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yangi davrda ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish orqali chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni samaradorligini oshirish asosiy masala hisoblanadi. Shu bilan zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish ehtiyoji keng sur'atda oshib boradi. Chet tillarni o'rganishda o'quvchini ozlashtirishi oson bo'lgan turli hil metodlarni, harakatli o'yinlarni dars jarayonida qo'llash ulardagi qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. Darslarni amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish, o'quvcilarni guruhlar kesimida bo'lib topshiriqlar berish ulardagi raqobat muhitini hamda kommunikativlik qobiliyatlarini o'sishiga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi jadallik bilan osib borayotgan bir davrda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab keskin o'sib bormoqda chunki xorijiy hamkorlarimizni mamlakatimizga kirib kelishi, ulkan loihalarni amalga oshirishi uchun iqtisodiyotni rivojlantirish va rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi, jaxon bozoriga inson kapitali orqali chiqishdek fazifani yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yili 20 mayda qabul qilingan "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



bosqichgalib chiqh chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori .O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2020 yili 11-iyndagi " Ozbekiston yangi taraqqiyot davrida" , "Ta'lim tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi PF-6108-son farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yili 8-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida PF-5847-son farmoni hamda ushbu faoliyatga aloqador bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish. Shunday ekan butun dunyoda va mamlakatimizda chet-tillarni o'rganishga bo'lgan talab oshib borar ekan bizning oldimizdagi muammo : Darslarni qiziqarli, tshunarli va o'zlashtirib olish imkoniyati yuqori bo'lishi uchun turli hildagi iterfaol metodlardan foydalanish bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarni filologiya bilan yug'unligini ta'minlashdan iborat ekanligi ayni haqiqatdir.Texnologiyalar asrida chet -tillarni o'rganish bir qancha qulayliklarni yaratib bermoqda. Misol uchun:

Ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan chet tilidagi video roliklar, kino filimlar , ko'rsatuvlarni ko'rish multfilmlarni tomosha qilish mumkin;

"Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingiliz tilini o'rganishda muhim ahamyatga ega o'zlari uchun notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

"Tezkor javob" (Quik answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yodam beradi;

"Chigil yozdi" (Warm-up exercieses) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har hil o'yinlardan foydalanish;

"Pantomima" (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushintirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib ,talabalar charchagan vaqtda foydalansa bo'ladi;

"Hikoya zanjiri" (a chain story) usuli o'quvchilarning ogzaki nutqini o'stirishda yordam beradi;

"Ro'lli o'yinlar" (Acting characters) bu usul darsninig barcha tiplarida qo'llanishi mumkin.Hunarga o'rgatish uchun "Interpreter", "Translator", "Writer", "Poet" kabi kasbdagi kishilar darslarida ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

"Allomalar yig'ini" (Wen pictures speak) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Bums kabi shoirlarni yoki yozuvchilarni "taklif qilish" mumkin. Bunday paytlarda ularning hikmatli so'zlaridan foydalanishlari mumkin . Ajdodlar merosini o'rganish o'quvchilarni komil inson bolib kamol topishiga yordam beradi.

"Rasmlar so'zlaganda" (When picters speak) usuli ancha qulay bolib , ingliz tilini o'rganishda, o'quvchilarni og'zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi, buning ucun mavzuga oid rasmlardan foydalanish kerak;

Kviz kartochokalari (quiz cards) o'quvchining soniga qarab kartochoklar tarqatiladi va barcha talabalar bir vaqtda darsda qatnashadi bu esa o'z navbatida vaqttni tejaydi. '

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni atish mumkinki innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'rganish ,uni amalyotda qo'llay olish va turli sohalarga integratsiya qilish davr talabiga aylandi desak mubolag'a bolmaydi. Horijiy tillarni o'rganish orqali inson



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



kapitali rivojlantirish va jaxon bozoriga chiqish imkoniyatini beradi. Shuning uchun filologiyada inovatsion texnologiyalardan keng foydalangan holda ta'lim berishimiz, hada o'quv markazlari faoliyatini organish, tajriba almashish zarur hisoblanadi. Buning uchun eng avval dars berayotgan o'qituvchilar darslarga puxta tayorgarlik ko'rishi, o'quvchilarni mantiqiy fikirlashga ,kreativlik qobiliyatlarini rivojlantishga ahamiyat berishi kerak. Bu o'z navbatida ta'lim sifatini ortishiga barkamol ,etuk avlodni etishib chiqishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekmuratova U. B “Ingiliz tilini o'qitishda inovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent -2012 yil
2. N. Q. Xatamova, M. N. Mirzayeva . “INGILIZ TILI DARSLARIDA QOLLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo'lanma), Navoiy 2006, 40 bet.
3. O'. Hoshimov , I. Yoqubov. “INGILIZ TILI OQITISH METODIKASI” (o'quv qo'lanma) Toshkent “Sharq” nashriyoti. 2003
4. X. Ikromova ,” CHET TILI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH” Oriental renaissance: Innovative, educational,natural and social sciences. (jurnal) 2021